Ёрдамчи жисмоний тайёргарликнинг илғор воситалари сифатида шундай машқлар қўлланилади, улар ўзининг кинематик ва динамик таркиби ҳамда асаб-мушак кучланиши хусусиятига кўра Курсантнинг мусобақа фаолиятида бажарадиган асосий ҳаракатларига мосдир. Шундай машқлар орасида қуйидагиларни ажратиш мумкин: курашнинг турли усулларини ишора орқали бажариш; маҳсус тренажёр мосламаларида бажариладиган машқлар; Курсантлар манекени билан машқлар.

Курсантнинг маҳсус жисмоний тайёргарлиги ҳаракатланиш сифатларини Курсантларнинг мусобақа фаолияти хусусиятлари томонидан қўйиладиган талабларга қатъий мувофиқ ҳолда ривожлантиришга қаратилган.

Курсантларнинг маҳсус жисмоний тайёргарлиги асосан кураш гиламида ўтказилади ва ҳаракат малакалари таркибидаги энг муҳим ҳаракат сифатларини ривожлантиришга қаратилган. Шунинг учун маҳсус жисмоний тайёргарликнинг асосий воситалари сифатида мумкин бўлган турли мураккабликларни жалб қилган ҳолда мусобақа машқлари қўлланилади. Бундай мураккаблаштирилган машқлар Курсант организмига бўлган таъсири кучайтиради. Масалан, оғирроқ вазн тоифасидаги шеригини ташлаш, шерикларни алмаштирган ҳолда машғулот беллашувлари бажарилади ва х.к. Мана шу барча машқлар энергия таъминотининг у ёки бу механизмларини ривожлантиришга хизмат қиласи, шунингдек Курсантнинг шуғулланганлигига комплекс ҳолда таъсири кўрсатади ҳамда бир вақтнинг ўзида унинг жисмоний ва техник-тактик тайёргарлигини оширади.

Жисмоний тайёргарликнинг барча кўрсатилган турлари бир-бири билан узвий боғлиқ. Машғулот жараёнида бирон-бир жисмоний тайёргарлик турларига етарлича баҳо бермаслик охир-оқибат спорт маҳоратини ошишига тўсқинлик қиласи. Шунинг учун машғулот жараёнида кўрсатилган жисмоний тайёргарлик турларини оптималь нисбатига риоя қилиш жуда муҳим саналади. Унинг сон жиҳатдан ифодаси доимий ўлчам ҳисобланмайди, балки Курсантлар малакаси, уларнинг алоҳида хусусиятлари, машғулот жараёни даври ва организмнинг шу пайтдаги ҳолатига боғлиқ ҳолда ўзгариб.





Курсантлар машғулотига нисбатан умумий ва маҳсус тайёргарлик бирлиги тамоилии умумий ҳамда маҳсус тайёргарликнинг ўзаро боғлиқлигини назарда тутади. Бунда кўп йиллик спорт машғулотининг биринчи босқичида умумий тайёргарлик етакчи ўрин эгаллайди. Умумий тайёргарлик организм имкониятларининг маълум бир пойдеворини ҳамда ҳаракат малакалари ва қўникумалари захирасини яратади. Масалан, машғулотнинг бошланғич босқичида акробатика машқларини яхши ўзлаштирган Курсантлар келгусида курашнинг мураккаб техник-тактик ҳаракатларини муваффақиятли эгаллайдилар.

Етарли даражада ҳар томонлама жисмоний тайёргарликка эришиш кўп жиҳатдан машғулот воситалари ва услубларининг оқилона танланиши, кўп йиллик машғулотлар жараёнида умумий ва маҳсус тайёргарликнинг оптимал нисбатларига боғлиқ.

Спортчи ёши, тайёргарлик даражаси, шунингдек алоҳида хусусиятларига қараб, бу нисбат бошқача бўлиши мумкин. Спортчининг умумий ва маҳсус тайёргарлиги нисбатлари ўлчамини аниқлашда, нафақат унинг тайёргарлик даражасини, балки алоҳида хусусиятлари: беллашувни олиб бориш усули, ҳаракат малакаларини ўзлаштириши, машғулот юкламаларига бардош бера олиши ва бошқаларни ҳисобга олиш лозим.

Шундай қилиб, маҳсус тайёргарлик умумий тайёргарликнинг мустаҳкам пойдеворига таянади ва шуғулланганликнинг ижобий қўчиш самарасини юзага келтиради.

Маҳсус жисмоний сифат бўлмиш “куч” деганда Курсантнинг рақиб қаршилигини енгиб ўтиш ёки мушак кучланиши ҳисобига унга қаршилик кўрсатиш қобилияти тушунилади.

Вариантлилик услуби асосан турли вазндан оғирликлар билан маҳсус машқларни бажаришни қўзда тутади. Ҳар хил вазндан шериклар билан машқлар сериялаб бажарилади. Битта серияда аввал оғирроқ вазн тоифасидаги рақиб билан 10-12 та ташлаш бажарилади, сўнгра тенг вазндан оғирроқ вазн тоифасидаги рақиб билан 15-16 та ташлаш, шундан кейин ўз вазн тоифасидаги рақиб билан 10-12 та ташлаш бажарилади. Ҳаммаси бўлиб 3 серия бажарилади. Дам олиш оралиғи 3-4 мин бўлади. Айниқса, тезкор-куч сифатларини (меъёрдаги, кичик) ривожлантиришда вариантлилик усулуви самарали ҳисобланади.





Усулларни анча оғир рақиб билан такомиллаштириш алоҳида куч имкониятларини ривожлантиришга, кичик вазн тоифасидаги рақиб билан эса - тезкорлик имкониятларини ривожлантиришга ёрдам беради. Бу оқибатда мусобақа машқида натижада беллашувинг ошишига олиб келади.

Мушакларнинг изометрик кучланиш услуби турли мушак гурухларининг 4-6 сек. давом этадиган статик максимал кучланишини назарда тутади. Изометрик машқларнинг қиймати шундаки, уларнинг ҳажми унча катта бўлмайди, кўп вақт олмайди, бажарилиши анча осон бўлади. Бундан ташқари, уларнинг ёрдамида маълум бир мушак гурухларига зарур ёки ҳолатларда, гавда қисмларини букиш ёки ёзишнинг тегишли бўғим бурчакларида танлаб таъсир кўрсатиш мумкин.

Курсант тезкорлиги - бу унинг мумкин қадар қисқа вақт ичида айрим ҳаракат ва усулларни бажариш қобилиятидир. Тезкорлик сифатини яхши ривожлантирмасдан курашда юқори натижаларга эришиб бўлмайди. Ўз рақибидан хатто секунднинг юздан бир бўлагига тезроқ ҳаракат қиласидан Курсант унинг олдида муҳим устунликка эга бўлади.

Курсант тезкорлиги кўп жиҳатдан унинг асаб жараёнлари ҳаракатчанлигига, шароитларга, рақиб ҳаракатларидағи кўримсиз ўзгаришларни сезишига бўлган сезгирилик унда қай даражада ривожланганлигига, беллашувда ҳар сафар юзага келган вазиятни бир зумда қабул килиш ва тўғри баҳолай олиш малакасига, тактик ҳаракатларни ўз вақтида ва аниқ бажаришга боғлик.

ХУЛОСА

Малакали курсантларнинг жисмоний тайёргарлигини оптималлаштиришга қаратилган тадқиқотлар катта эътибор қаратилмоқда. жумладан, курсантларнинг умумий ва маҳсус жисмоний тайергарлигини оптималлаштириш, жисмоний тайёргарлик босқичларининг машғулотлари катталиги ва йўналиш тизимларини такомиллаштириш, маҳсус жисмоний сифатларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш, микроциклларда машғулотларни рационал алмаштириб ўтказишига оид қуйидаги қонуниятлар ва услублар аниқланди ва юқорида айтиб ўтилгандай, жисмоний машқлар ва югуриш билан мустақил шуғулланганда врач назорати ва ўз соғлиги ҳолати устидан назорат қилиб бориш зарур. Бунда курсант шуни билиб қўйишлари керак, тўғри ташкил қилинган югуриш мақслари таъсирида юрак қисқаришлари тезлигининг тинч ҳолатда ва югуриш





бажарилган заҳоти аста-секин сийраклашуви кузатилади. Югуриш билан доимий шуғулланиш курсантларнинг имтихон тест меъёрларини бажаришга ёрдам беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. ... д-ра. пед. наук. – Т., 2004. -51с.
2. *Abdullayev Sh.A., Xolmurodov L.Z.–Erkin kurash. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. “Ilmiy-texnika axboroti-press nashriyoti”, 2017 y.132 b.*
3. Adilov S.Q. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Erkin kurash). O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Fanlar akademiyasi bosmaxonasida” nashr etilgan, 2019 y. B.221.
4. Аккуин А.Д. - Повышение комбинационности борьбы стоя, на основе поэтапного овладения техническими действиями в дзюдо на начальном этапе подготовки / Аккуин А.Д., Аккуина Е.Д. // Актуальные проблемы физической культуры, спорта и туризма: материалы XI междунар. науч.-практ. конф. – Уфа, 2017 г. – С. 173-175.
5. Arslonov Sh.A., Tangriev A.J. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Dzyudo). Darslik. Toshkent “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2017 y. 188 b.
6. Artiqov Z. – Sport pedagogik maxoratini oshirish (belbog‘li kurash) O‘quv qo‘llanma – Toshkent “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2020 y. 144 b.





Халилов Сирожиддин Шерали ўғли –
“Alfraganus University” нодавлат олий таълим ташкилоти
Халқаро туризм менежменти кафедраси мудири, PhD

МИЛЛИЙ ТУРИЗМ ТАРМОГИНИНГ РАҶОБАТ УСТУНЛИГИ: НАЗАРИЙ АСОСЛАР ВА УСЛУБИЙ ЁНДАШУВЛАР

Аннотация. Мақолада миллий туризм тармоғида рақобат муҳити ва уни ташкил этувчи таркибий компонентлар ўзаро алоқадорлигининг долзарб масалалари кўриб чиқилган. Рақобат муҳити компонентларининг миллий туризм тармоғига таъсири ҳам таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: миллий туризм тармоғи, рақобат, рақобат муҳити, рақобат компонентлари, тартибга солиш воситалари.

Туризм мамлакатлар иқтисодиётининг стратегик сектори сифатида жадал ривожланиб келмоқда. Ўзбекистон ҳам ўзининг табиий-иқлим шароити, минерал-хомашё захираси ва тарихий-маданий мероси билан туристларни фаол жалб қилишга интилмоқда. Кирувчи ва ички туристик оқимга хизмат қўрсатиш орқали максимал даромад топиш мақсади миллий туризм тармоғининг рақобат устунликларини аниқлаб олишни тақозо қиласди.

Рақобат устунликлари, ўз навбатида, мамлакат учун сифат ва нарх параметрлари нуқтаи назаридан потенциал туристларда ижобий таассурот уйғотишни англатади. Қулай иқлим шароити, табиий ёдгорликлар хилма-хиллиги, ноёб пейзаж, архитектура обидалари, оптимал логистик схема, моддий ва номоддий маданий мерос объектлари ҳар қандай турист учун ташриф масканини танлашда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Ўзбекистон иқлимининг нисбатан мўътадиллиги, рельеф турларининг кўплиги, саломатликни тиклаш ва даволаниш учун шифобахш булоқлар, ғорларнинг мавжудлиги, флора ва фауна оламининг жозибадорлиги, тарихий объектларнинг сақланиб қолинганлиги, маданиятлараро мулоқот натижасида этнографик анъаналарнинг давом этиб келаётганлиги ҳеч бир туристни бефарқ қолдирмайди. Макро-, мезо- ва микроиқтисодий кўламда ривожланиш векторларини аниқлаб олишда, рақобат позициясини янада мустаҳкамлашга оид амалий чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқишида, миллий туризм тармоғига инновацияларни босқичма-босқич татбиқ этиб боришида шу каби жиҳатлар инобатга олиниши зарур. 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш





Концепциясида масаланинг айни томонлари ўз ифодасини топган. Ушбу ўрта истиқболга мўлжалланган стратегик хужжат, моҳият эътиборига кўра, миллий туризм тармоғи рақобат устунликларини юзага чиқаришда муҳим асос вазифасини ўтамоқда.

Туризм тармоғининг мамлакат иқтисодиётидаги улушкини ошириб бориш, туристик хизматларни диверсификация қилиш ва юқори даражали сифатини таъминлаш, туризм инфратузилмасини модернизациялаш ҳозирги пайтда долзарбдир. Ўзбекистон улкан туристик-рекреацион салоҳиятга эга. Мамлакатда умумий ҳисобда 7,4 минг моддий маданий мерос намуналари мавжуд. Улардан жами 209 таси эса тўртта музей шаҳарлар – Хива, Бухоро, Шахрисабз ва Самарқанд шаҳарларида жойлашган. Мазкур обьектлар ЮНЕСКО Бутунжаҳон мероси рўйхатига киритилганлиги диққатга сазовор¹.

Миллий туризм тармоғида хусусий тадбиркорликни қўллаб-куватлашга қаратилган тизимли чора-тадбирлар самараси ўлароқ, Ўзбекистонга кирувчи туристик оқим ошиб бормоқда, туроператорлар, туристик агентликлар ва меҳмонхоналар сони йил сайин ортмоқда. Маълумки, жойлаштириш воситалари, умумий овқатланиш пунктлари, маданий-кўнгилочар марказлар, туристларни ташишга мўлжалланган транспорт турлари ва магистрал йўл бўйи инфратузилмасини кенгайтириш давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири сифатида қатъий белгилаб олинган. Бу ҳам миллий туризм тармоғининг рақобат устунликларини юзага чиқаришда ҳал қилувчи ўринга эга.

Шунингдек, миллий туризм тармоғи рақобат устунликларининг босқичмабосқич ривожлантирилиши мамлакат худудлари ички салоҳиятини қўллаб-куватлашга олиб келади, яъни:

- худудларо ривожланишдаги тафовутлар қисман тугатилади ҳамда иқтисодий индикаторларда мувозанатга эришилади;
- худудларнинг ишлаб чиқариш ва бозор инфратузилмаси жадал ривожланади;
- долзарб ижтимоий масалалар ҳал этилади, хусусан, мавжуд иш ўринлари барқарорлашади ва янги ваканциялар очилади;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришига оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси.





- худудий иқтисодий комплекс диверсификация қилинади ва қўшимча даромад манбалари аниқланади;
- маҳаллий аҳолининг реал даромадлари ортади ва турмуш сифати кўтарилади;
- худудга ташқи манбалардан инвестиция оқими кириб келиши имкониятлари кенгаяди;
- худуднинг жозибали дестинация сифатидаги имижи шаклланади.

Масаланинг шу каби жиҳатларига эътибор қаратган ҳолда таъкидлаш жоизки, кирувчи ва ички туристик оқим йирик туристик аттракция марказларида тўпланиб қолмоқда. Пойтахт Тошкент, Самарқанд, Бухоро ва Хива шаҳарларига туристик юклама ҳажми номутаносиб равишда ошиб бормоқда. Бунинг объектив сабаблари бор, албатта. Бироқ мамлакатнинг бошқа худудларининг ҳам туристик салоҳиятини ишга солиши зарурати мавжуд. Ҳудудлар инфратузилмасининг ҳолати хорижий ва маҳаллий туристларга сифатли хизмат кўрсатишда муҳим ўрин тутади. Қулай транспорт боғламалари, санитария-гигиена пунктлари, тўлақонли ҳордиқ чиқариш учун шароитларнинг яратилганилиги шулар сирасига мансуб. Табиий-иқлим шароити баъзи жанубий ва шимолий худудларда туризмнинг мавсумийлик муаммосини келтириб чиқаради. Натижада туристларга хизмат кўрсатувчи персонал таркиби малакали ходимлар билан тўлдирилмасдан қолиб кетади. Жаҳонда сиёсий вазиятнинг беқарорлиги айрим давлатлардан кирувчи туристик оқимнинг мунтазамлигига таъсир кўрсатади. Кирувчи туристик оқим географиясининг диверсификациланганлиги худуд иқтисодиётига қўшимча ўсиш манбаларини яратади. Туризм параллел равишда ташқи манбалардан инвестиция оқимининг вужудга келишига туртки беради. Инвестицион ресурслар эса янги туристик объектлар ишга тушишини таъминлайди.

Ўзбекистонга кирувчи туристик оқимнинг ортишида бир нечта омиллар ҳал қилувчи ўрин эгаллайди. Виза режимининг соддалаштирилганлиги, миллий туризм салоҳиятини тарғиб қилиш чораларининг изчил амалга оширилаётганлиги бунга яққол далиллар. Электрон кириш визаларини расмийлаштиришнинг автоматлашган тизими ишга туширилди, қатор давлатлар фуқароларига транзит турист сифатида виза тартиби бекор қилинди, туристик классдаги транспорт воситалари сони кўпайди.





Бир сўз билан айтганда, миллий туризм тармоғини ривожлантириш учун хуқуқий база яратилди. Институционал ислоҳотлар самараси сифатида туризм инфратузилмаси модернизация қилинмоқда ва миллий туризм бренди ташки бозорларда фаол тарғиб этилмоқда. Таргетинг ёндашуви орқали Ўзбекистонга асосий туристик оқимни таъминловчи давлатлар билан икки томонлама ҳамкорлик алоқалари кенгайди. Миллий туризм тармоғида маҳаллий тадбиркорларнинг ишбилармонлик фаоллигини рағбатлантириш юзасидан манзилли чоралар кўрилди. Маҳаллий туроператорларнинг стартап-лойиҳалари туризмни ривожлантиришга мўлжалланган бюджетдан ташқари жамғарма маблағлари ҳисобидан молиялаштирилди. Ҳудудларда туризмнинг ёндош инфратузилмаси – умумий овқатланиш шохобчалари, транспорт боғламалари, туристик намойиш обьектлари барпо этилди.

Миллий туризм тармоғининг рақобат устунликларини юзага чиқаришнинг ўзига хос хусусиятлари шундан иборатки, бу жараён турли ҳокимият тузилмалари, тадбиркорлар, мувофиқлаштирувчи органлар саъй-ҳаракатларини мақсадли концентрациялашни талаб қиласди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси, Ўзбекистон Республикаси Маданият ва туризм вазирлиги, унинг ҳудудий бошқармалари ва марказий аппарат бўйсунувидаги органлар, йирик туристик бренд эгалари – туроператорлар, люкс классдаги меҳмонхоналар, ресторонлар, маҳаллий ижро ҳокимияти – вилоятлар ҳокимликларининг ҳудудий туризмни ривожлантириш кенгашлари томонидан кўрилаётган амалий чора-тадбирлар уч звено (қатлам) доирасида координацияни тақозо қиласди. Бу миллий туризм тармоғида давлат сиёсатини бир хилда талқин қилиш ва белгиланган истиқболли чораларнинг манзилли бўлишини таъминлаб беради. Макро-, мезо- ва микроиқтисодий бирликлар фаолияти ягона миссия ижросига йўналтирилади ҳамда пировард натижада синергетик самарага эришиллади (1-расм).





Миллий туризм тармоғида истиқболли мақсадларга әришиш борасида давлат сиёсати

Макроиқтисодий кўламда:

- асосий ривожланиш параметрлари ва миссия белгиланади;
- туристик фаолият субъектларини кўллаб-кувватлашнинг қонуний дастаклари яратилади.

Мезоиқтисодий кўламда:

- ҳудудий туристик ресурслардан самарали фойдаланиш дастурлари ишлаб чиқилади;
- конунчиллик хужжатларининг ҳудудий ижроси таъминланади.

Микроиқтисодий кўламда:

- аниқ мезонлар асосида даромадли бозор сегменти аниқлаб олинади;
- ички ва ташқи бозорда рақобат позицияси эгалланади.

1-расм. Миллий туризм тармоғида истиқболли вазифаларни ҳал этишнинг поғонали модели²

Миллий туризм тармоғида уч звено (қатлам)дан иборат ташкилий тузилмалар фаолияти ўзаро тактик мувофиқликда амал қилиши зарур. Ҳар бир қатлам ўз зиммасига юклатилган вазифалар бажарилишида жавобгарлик нуқталарини белгилаб олади. Буларнинг барчаси миллий туризм тармоғининг рақобат устунликларини кучли импульс билан ривожлантиришга замин ҳозирлайди. Макроиқтисодий кўламдаги жавобгарлик нуқталари учун Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси, Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси, мезоиқтисодий кўламда маҳаллий ижро маъмурияти, микроиқтисодий кўламда хизматлар бозорида таваккалчиликни бўйнига олган ҳолда фаолият юритиб келаётган туроператорлар, туристик агентликлар, меҳмонхоналар масъул саналади. Истиқболли вазифаларни ҳал этишнинг поғонали моделида ҳар бир таркибий ташкил этувчи ўз ваколатлари доирасида тактик чоралар кўриш орқали миллий туризм тармоғининг рақобат устунликлари юзага чиқишига ҳисса қўшади.

² Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.





Таъкидлаш лозимки, мустақил иқтисодий феномен сифатида рақобат устунлиги мутлақ ва нисбий ўлчовларга эга категория саналади. Бу категория туризм тармоғида ҳам яққол намоён бўлади. Мутлақ рақобат устунлиги ноёб ресурсларга эгалик билан белгиланади. Нисбий рақобат устунлиги эса қиёсий таҳлиллар натижасида аниқлаб олинади. Ўзбекистон миллий туризм тармоғининг мутлақ рақобат устунлиги географик жойлашуви (локация), табиий-иклим шароити, моддий ва номоддий маданий мерос, тарихий цивилизация қолдиқларида ўз аксини топган. Худди шундай, Ўзбекистон миллий туризм тармоғининг нисбий рақобат устунликлари қиёсий таҳлил амалга оширилаётган давлат ёки алоҳида туристик дестинация салоҳиятига солиштириш натижасида юзага чиқади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. 2019 йил 05 январь, ПФ-5611 сон.
2. Азар В.И. “Рекреацион география”. Монография. Москва, 2017 й., қайта нашр – 89-124 б.
3. Абиев Ж.Н. Миллий иқтисодиётда туризм тармоғини ривожлантиришнинг ташкилий-иктисодий механизmlарини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. Самарқанд, 2019 й. – 11-14 б.
4. Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустрясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. Самарқанд, 2019 й. – 18-24 б.
5. Амонбоев М., Халилов С. Туризм индустряси ривожланишининг асосий йўналишлари ва истиқболлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” электрон журнали. Тошкент 2019.





BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YOSH O'QITUVCHILARINING QADRIYATLAR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Gadayeva Shamsiya Botirovna

*Zarafshon shahar 13- ayrim fanlar chuqur
o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qator davlat xujjatlari, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifati va mazmunini takomillashtirishga oid me'yoriy hujjatlar asosida yosh o'qituvchilarini kasbiy faoliyatini takomillashtirish, ularning malakasini oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va o'quv-uslubiy majmular tayyorlanmoqda. Bular natijasida zamonaviy raqobatbardosh yetuk mutaxassislar tayyorlashga yangicha talablar qo'yilmoqda.

Bundan ko'zlangan maqsadlardan biri ham raqobatbardosh zamonaviy, ma'naviy yetuk boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdan iborat. Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy yetukligi har qachongidan ham dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, ushbu maqolada ham qadriyatlar tizimidan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatini takomillashtirish muammosi qaraladi. Ushbu muammo boshlang'ich sinf o'qituvchilari ongiga qadriyatlarga oid boy ma'lumotlarni singdirish negizida hal etildi. Bundan ko'zlangan maqsad boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy va kasbiy jihatdan yetuk bo'lishidan ibratdir.

"Milliy qadriyat", "milliy g'oya", "milliy iftixor va tuyg'u", "milliy an'ana", "milliy madaniyat", "milliy urf-odat", "milliy me'morchilik", "milliy musiqa", "milliy kiyim" so'z birikmalari nutqimizni rang-barangligi va ta'sirchanligini taminlanayotganligi barchamizga ayon. Qadriyat so'zi xalq boyligi, qimmatbaho buyumlar, qiymat, ahamiyat kabi ma'nolarni ifoda etadi. Voqelikdagi muayyan hodisalarining umum insoniy ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lган barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik,adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik moddiy va ma'naviy boyliklar qadriyat hisoblanadi. Bugungi kunda turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lган milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb yetadi. Xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatları ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga e'htirom, o'z





taqdirini mana shu yurtsiz ta'savvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas. Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lisch, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini - oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Shularni e'tiborga olgan holda qadriyatlar tizimi va ularning mazmun-mohiyati bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni kafolatlovchi aniq maqsadga yo'naltirilgan tashkiliy, axborotli va texnologik yondashuvni o'zida uyg'unlashtirgan o'qituvchi va o'quvchining uzviy aloqadorligi asosida amalga oshiriladigan ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy ta'minoti majmuasiga oid tashkiliy-tuzilmaviy modeli ishlab chiqildi.

Bu qayd etilgan tashkiliy-tuzilmaviy modeldan ishonch hosil qilish mumkinki, qadriyatlar tizimidan foydalanib boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikmalarini oshirishda quyidagilar muhim tarkibiy qismlar bo'lib hisoblanadi:

Qadriyatlar tizimidan foydalanib boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikmalarini oshirishning o'quv-uslubiy ta'minoti;

O'quv bloklariga mos qadriyatlar tizimi va uning axborot ko'rinishiga keltirilishi;

Qadriyatlar tizimidan foydalanishga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikmalarini oshirishda pedagogik va texnologik yondashuv qilish imkoniyatlari;

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllangan kasbiy-ma'naviy sifatlar;

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllangan kasbiy-ma'naviy va shaxsiy-ma'naviy sifatlar va h.k.

Ushbu tarkibiy qismlardan samarali foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanib, ular o'z navbatida o'qituvchilarning kasbiy mahoratining asosini ham tashkil etadi.





Endi tadqiqotimiz ushbu qismida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qadriyatlar tizimidan foydalanish ko'nikmalarining shakllanganligini aniqlash masalasiga o'tamiz.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, o'qituvchi tomonidan beriladigan materialni an'anaviy usulda bayon qilish hamma vaqt ham ta'lim oluvchiga quvonch baxsh etavermas ekan. Bu borada ta'lim mazmuniga ma'naviy merosni (qadriyatlar tizimidagi) singdirib dars berish samarali kechar ekan. Bunday jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zлari mustaqil fikrlab, o'quvchilar bilan birgalikda do'stona aloqa o'rnatib bu sohadagi muammolarni hal etsa, bajargan ishi ularga quvonch baxsh etar ekan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongida milliy qadriyatlarni singdirish usullari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

1) "Milliy qadriyatlamiz- inson ma'naviyatining muhim belgisi" – nomli darslik tashkil etish va uni fan sifatida qo'llash;

2) Ma'naviyat soatlarini tashkil etish;

3) Milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga chorlovchi tadbirlar, tanlovlardashkil etish;

4) Milliy qadriyatimiz hisoblangan milliy o'yinlarimizni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish

5) Maktablarda "Milliy qadriyatlarga ehtirom" nomli burchak tashkil etish. Bu burchakni o'quvchilar o'z ijod namunalari asosida to'ldirib borishlarini yo'lga qo'yish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisidan buyuk psixolog bo'lish ham talab etiladi. Chunki o'quvchilarga berayotgan ma'lumotni bola tilida, sodda , ravon, tushunarli qilib yetkazib berishi kerak. Ya'ni o'zi ham bola bo'lib, turli holatlarga kirib, berilayotgan ma'lumotni o'quvchining ongida singdira olishi kerak. Xuddi shuningdek, milliy qadriyat tushunchasini, uni asrab-avaylash tuyg'usini boshlang'ich sinf o'quvchilariga yetkaza bera olishi zarurdir. O'quvchining bolalikdan milliy qadriyatlarga bo'lgan muhabbatini oshirish - kelajakda barkamol avlodlar safining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yosh avlodni tezkor zamonga mos tarzda tarbiyalab, fikrlashini kengaytirib, ma'naviy olamini boyitish yo'lida muntazam izlanmog'imiz talab etiladi. Bu ezgu niyatlar yo'lida barchaga kuch-quvvat, intilish va azm-u shijoat doimo hamroh bo'lishini tilab qolaman. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his





etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lzin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin.

Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"¹, deya ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida quyidagi ko'rinishdagi natijalarga erishishga imkon yaratiladi:

- O'rganiladigan mavzu mazmun-mohiyatini uzoq vaqt ta'lim oluvchi xotirasida saqlash;
- Milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini izohlay olish va ularning farqini chuqur anglash;
- Qadriyatlar tizimidan foydalanib mutaxassislar o'z bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda foydalana olishlik;
- Mustaqil va erkin ravishda fikrlashni rivojlantirish;
- Ma'naviyatga ishtiyoqni kuchaytirish va ijtimoiylashishga moslashish;
- Egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amalga tadbiq etib, tegishli natjalarni qo'lga kiritish;
- Muammoli vaziyatlar va muammoli savollardan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy yetukligi bilan chiqib keta olishligi va shu kabilar.

Xulosa: O'rnida ta'kidlash mumkinki, qadriyatlar tizimidan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni monitoringi asosida boshlang'ich ta'limda pedagoglarning ma'naviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning mazkur uslubi va ularga mos samaradorlikni aniqlash o'ziga xos ijodiy jarayon bo'lib, u rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. To'raqulov.X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. Monografiya-T.: Fan. 2006. 248-bet.
2. To'raqulov X.A.va boshqlar. Ilmiy tadqiqot asoslari. O'quv qo'llanma –T.: Fan va texnologiya. 2011. 484-bet.
3. To'raqulov X.A. Abdullayeva B.S. To'raqulova I.X. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi . Darslik.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot manbaa uyi." 2020. 476-bet.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev - "Yoshlar tarbiyasi - eng muhim masalalardan" nomi ostida o'tkazilgan tadbirdagi nutqidan. 2017.16.06, Toshkent.





UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINING ELEKTR
TOKI HAQIDA TUSHUNCHA MAVZUSIGA DOIR BILIMLARINI OILAVIY
SHAROITDA RIVOJLANTIRISH

Choriyeva Mahfuza Sadriddin qizi

mahfuzachoriyeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola o'rta maktab o'quvchilarining oila sharoitida elektr toki tushunchasi haqidagi bilimlarini rivojlantirishning samarali strategiyalarini o'rganadi. Elektr tokini tushunish xavfsizlik, atrof-muhitni bilish, muammolarni hal qilish qobiliyati va kelajakdagi martaba imkoniyatlari uchun juda muhimdir. Maqolada amaliy tajribalar, interfaol ta'lif, ekskursiyalar va oila ichidagi muhokamalar bo'yicha amaliy takliflar berilgan, bu esa ushbu muhim tushunchani chuqurroq tushunishga yordam beradi. Oilada elektr toki haqidagi bilimlarni tarbiyalash orqali bolalar nafaqat qiziqishlarini uyg'otadilar, balki xavfsizlik, ekologik ong va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Kalit so'zlar. Elektr toki, oilaviy ta'lif, o'rta maktab o'quvchilari, amaliy tajribalar, xavfsizlikni anglash, atrof-muhitni muhofaza qilish, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, interaktiv ta'lif, qayta tiklanadigan energiya, elektr energiyasini iste'mol qilish.

Abstract

This article explores effective strategies for developing the knowledge of secondary school students about the concept of electric current within a family context. Understanding electric current is crucial for safety, environmental awareness, problem-solving skills, and future career opportunities. The article provides practical suggestions for hands-on experiments, interactive learning, field trips, and discussions within the family, fostering a deeper understanding of this essential concept. By nurturing electric current knowledge within the family, students not only engage their curiosity but also promote safety, environmental consciousness, and critical thinking skills.

Key words. Electric current, family education, secondary school students, hands-on experiments, safety awareness, environmental consciousness, problem-solving skills, interactive learning, renewable energy, electricity consumption.

KIRISH

Elektr toki zamonaviy hayotning ajralmas qismi bo'lib, uning asosiy tushunchalarini, masalan, elektr tokini tushunish ma'lumotli va mas'uliyatli hayot uchun zarurdir. O'rta maktab o'quvchilari ko'pincha sinfda elektr energiyasi haqida





bilib olishsa-da, oilaviy kontekstda chuqurroq tushunishni rivojlantirish bolalar uchun ham qiziqarli bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada biz umumiy o'rta maktab o'quvchilarining oila sharoitida elektr toki tushunchasi haqidagi bilimlarini rivojlantirishning samarali usullarini o'rganamiz.

Nima uchun elektr toki haqida bilish muhim

Elektr toki - bu uylarimizni yoritishdan tortib qurilmalarimizni quvvatlantirishgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshiruvchi kuchdir. Elektr toki haqida tushunchani rivojlantirish bir necha sabablarga ko'ra juda muhimdir:

1. Bolalarning xavfsizlik bo'yicha xabardorliklarini oshirish uchun: O'quvchilarga elektr toki haqida o'rgatish ularga potentsial elektr xavflarini tushunishga yordam beradi, xavfsizlik madaniyatini tarbiyalaydi.

2. Bolalarning ekologik ongini rivojlantirish uchun: Elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste'mol qilishni tushunish bolalarning kelajakda ekologik toza amaliyotlar va resurslardan mas'uliyatli foydalanishlariga rag'batlantiradi.

3. Hayotda uchrovchi muammolarni yechish ko'nikmalar: Elektr zanjirlari va tok kuchi hayotning turli jabhalarida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni yechishni ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

4. Karyera imkoniyatlari: Elektr toki tushunchalaridagi mustahkam poydevor bolalarning kelajakdagisi muhandislik, texnologiya va boshqa tegishli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga yo'l ochishi mumkin.

Oilaviy sharoitda elektr toki haqidagi bilimlarni rivojlantirish usullari (Barcha tajribalar kattalar nazoratida o'tkazilishi shart!!!):

1. Qo'lda bajariladigan tajribalar: Elektr tokening mavjudligini ko'rsatadigan oddiy tajribalardan boshlash lozim. Misol uchun, batareyalar, ulovchi simlar va lampochka yordamida asosiy zanjir sxemasini yaratamiz. Zanjirdagi elektronlar oqimini va u lampochkani qanday quvvatlantirishini tushuntiramiz.

2. Uydagi maishiy texnikalarni o'rganish: Ishlamaydigan elektron qurilmalarni (xavfsizlik choralar bilan albatta!!!) ajratib olamiz va ularning tarkibiy qismlarini, jumladan, simlar, kalitlar va rezistorlarni tekshirib ko'ramiz.

3. Interaktiv ilovalar va to'plamlar: Elektr zanjirlarini o'rgatish uchun mo'ljallangan o'quv dasturlari va to'plamlaridan foydalanish mumkin. Ushbu vositalar ko'pincha o'rganishni qiziqarli va qulay qiladigan virtual simulyatsiya va interaktiv tadbirlarni o'z ichiga oladi.

4. Ekskursiyalar: Ilmiy muzeylarga yoki elektr energiyasiga qaratilgan interaktiv eksponatlarga tashrif buyurish. Ushbu sayohatlar haqiqiy dunyo misollarini taqdim etadi va bolalarda yanada qiziqish uyg'otadi.





5. Kitob o'qish va videolar tomosha qilish: Elektr va elektr toki haqida yoshta mos kitoblar va videolarni to'plash. Tushunchalarni mustahkamlash uchun oila a'zolari birgalikda o'rganganlarini muhokama qilishlari lozim.

6. Oddiy zanjirlarni tuzish: Oilaviy loyiha sifatida murakkabroq sxemalarni yaratish. Ketma-ket va parallel sxemalar, kalitlar va turli komponentlar bilan tajriba o'tkazish. Bu bolalarga turli xil konfiguratsiyalar tok kuchiga qanday ta'sir qilishini ko'rish imkonini beradi.

7. Quyosh energetikasi loyihalari: Quyosh energiyasi bilan ishlaydigan kichik ventilyator yoki quyosh energiyasi bilan ishlaydigan boshqa oddiy qurilmalar yasash orqali qayta tiklanadigan energiya tushunchasini o'rganish. Ushbu amaliy tajriba elektr tokini barqaror amaliyotlar bilan bog'laydi.

8. Energiya iste'molini muhokama qilish: Uyimizning energiya sarfini hisoblashni o'rganish. Turli xil jihozlar va lampochkalar elektr to'loviga qanday ta'sir qilishini muhokama qilish. Tejamkorlik choralarini va energiyani tejaydigan usullarni bolalar bilan birga izlab topish.

9. Xavfsizlik choralarini haqida xabardor bo'lish: Bolalarga elektr xavfsizligi haqida o'rgatish. Nam qo'l bilan ochiq rozedkalar va boshqa turli xil jihozlarga tegmaslik, izolyatsiyalangan asboblardan foydalanishning muhimligi va foydalanimayotganda jihozlarni o'chirishning ahamiyatini tushuntirish.

10. Bolalarga elektr toki haqida savollar berish va ularning qiziqishini rag'batlantirish: Bolani har doim elektr toki haqida savollar berishga undash va bolalarga ham o'rganganlari bo'yicha savol berish. Savollarga iloji boricha bola tushunadigan tilda javob berish, bilmaganimizni esa bola bilan birga o'rganishimiz lozim.

XULOSA

Elektr toki haqida mustahkam tushunchani rivojlantirish nafaqat qimmatli ilmiy izlanish, balki muhim hayotiy ko'nikma hamdir. Ushbu bilimlarni oilada tarbiyalash orqali biz nafaqat o'rta maktab o'quvchilarining qiziqishini uyg'otamiz, balki xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Halliday, D., & Resnick, R. (2017). Fundamentals of Physics, Volume 1 (11th ed.). Wiley.





- 2.** Mauro, P. (2015). Teaching Electricity in the Primary and Secondary School. European Journal of Physics Education, 6(2), 9-14.
- 3.** National Renewable Energy Laboratory. (n.d.). Teaching Renewable Energy through Hands-On Experiments. Retrieved from <https://www.nrel.gov/education/pdfs/teaching-renewable-energy.pdf>
- 4.** Science Museum. (n.d.). Electricity: The Spark of Life. Retrieved from <https://www.sciencemuseum.org.uk/see-and-do/electricity-spark-life>
- 5.** U.S. Department of Energy. (2022). Energy Efficiency: A Comprehensive Resource for Saving Energy. Retrieved from <https://www.energy.gov/eere/femp/energy-efficiency-comprehensive-resource-saving-energy>





INGLIZ TILIGA XORIJIY TILLARDAN KIRIB KELGAN SO'ZLARNING YASALISHI

Xushvaqtova Gulnoza Tulqinovna

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 71 mактабning

Oliy toifali ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ingliz tili qadimgi ingliz tilidan, anglo-sakslarning g'arbiy german tilidan kelib chiqqan. Grammatikasining aksariyati, asosiy lug'ati va eng keng tarqalgan so'zlari german tilidir. Har qanday matndagi so'zlarning taxminan 70 foizi qadimgi ingliz tilidan olingan. Ushbu maqolada ingliz tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan so'zlarning yasalishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Leksikologiya, leksika, o'zlashma so'zlar, neologizmlar, etimologik ma'no, semantik ma'no.

Chetdan kirib kelgan so'zлari yoki boshqa til so'zлari ona tiliga boshqa manba tilidan qabul qilingan so'zlardir. Bunday so'zlar ingliz tilini deyarli boshidanoq shakllantirdi, chunki so'zlar klassik tillardan, shuningdek, ketma-ket bosqinchilik to'lqinlaridan qabul qilingan. Hatto 16-asrga kelib, Britaniya imperiyasi butun dunyo bo'ylab o'zining keng qamrovini kengaytirishdan ancha oldin, ingliz tili taxminan 50 ga yaqin boshqa tillardan so'zlarni qabul qilgan va bugungi kunda inglizcha so'zlarning katta qismi aslida u yoki bu turdagи xorijiy so'zlardir.

Hech qachon matn ko'rishni boshdan kechirganmisiz? Urban Dictionary ma'lumotlariga ko'ra, bu "matnli xabarga javob kutayotganda seziladigan kutish". Ushbu yangi so'z, textpectation, qorishma yoki (Lyuis Kerrollning yanada hayoliy iborasida) portmanto so'zining namunasidir. Aralashtirish - bu ingliz tiliga yangi so'zlarni kiritishning ko'p usullaridan biri, va doimiy ravishda ko'proq yangi so'zlar ixtiro qilinmoqda!

Ba'zida bunday so'zlar kirib kelishi aylanma yo'l bilan sodir bo'lgan (masalan, orange so'zi sanskritcha naranj, naranga, narangaphalam yoki naragga so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, arabcha naranja va ispancha naranjaga aylangan, ingliz tiliga naranj sifatida kirib, narangega, keyin esa naranjga o'zgargan. arange va nihoyat orange; garbage so'zi ingliz tiliga lotin tilidan kelgan, lekin faqat eski italyancha, italyan lahjasи va keyin norman fransuz tilidan kelgan). Ba'zan boshqa tillar orqali filrlashning burilish yo'li va darajalari so'zlarni shu qadar o'zgartirishi mumkinki, ularning asl kelib chiqishi aniq bo'lmaydi (masalan, both coy va quiet come so'z lotin so'zidan kelib chiqqan; sordid va swarthy so'z lotincha sordere so'zidan kelib chiqqan; entirety va integrity ikkalasi ham lotincha integritasdan olingan; salary va sausage ikkalasi ham lotincha sal so'zidan kelib chiqqan; grammar va glamour ikkalasi ham





bir xil yunoncha gramma so‘zidan kelib chiqqan; gentle, genteel, jaunty so‘zlarning barchasi lotincha gentilis so‘zidan kelib chiqqan; va hokazo

Jahon savdosining kengayishi va ayniqsa, Britaniya mustamlakachiligi boy yangi manbalarni ochganidan beri, turli tillarning xilma-xilligidan ingliz tiliga juda ko‘p sonli so‘zlar qabul qilindi. Teskari jarayonda ko‘plab inglizcha so‘zlar boshqa mamlakatlar tomonidan ham qabul qilingan

Biroq, ingliz tilidagi mumkin bo‘lgan affikslarning xilma-xilligi va soni ba’zi chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, otni sifatga aylantirish kabi asosiy narsa uchun yagona standart usul yo‘q (-able, -al, -ous va -y imkoniyatlarning ba’zilari). Kamida to‘qqiz xil inkor prefikslari (a-, anti-, dis-, il-, im-, in-, ir-, non- va un-) mavjud bo‘lib, ona tili bo‘lmagan so‘zlovchining taxmin qilishi deyarli mumkin emas. qaysi o‘zak so‘z bilan ishlatilishi kerak. Bundan ham yomoni, ba’zi ko‘rinadigan salbiy shakllar o‘z ildizlarining ma’nolarini ham inkor etmaydi . Ayrim affiks qo‘sishchalari hayratlanarli darajada yangi. Rasmiylik va zerikish qadimgi qirollik so‘ziga 20-asrda qo‘shilgan va siyosiy inkor 1952 yilgacha paydo bo‘lmagani uchun affikslarni qo’shish yangi so‘zlarni yaratishning eng oddiy va ehtimol eng keng tarqalgan usuli bo‘lib qolmoqda.

Ingliz Uyg'onish va Sanoat inqilobi davrida yunon va lotin tillarining klassik elementlarini (masalan, fotosurat, telefon va boshqalar) birlashtirish inglizcha so‘z yaratishning juda keng tarqalgan usuli bo‘lgan va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Ingliz tili ilmiy-texnik leksikasining katta qismini ana shunday klassik birikmalar tashkil qiladi. Ba’zan so‘zlar yoki fonemalar butun birlashmasdan emas, balki aralashtiriladi va ikkita ma’noni bir so‘zga jamlagan yoki ikkita tarkibiy so‘z o’rtasidagi oraliq ma’noga ega "portmanto so‘zini" hosil qiladi (masalan, nonushta va tushlikni aralashtirgan brunch; motorni aralashtiruvchi motel). mehmonxona va mehmonxona; elektr va ijroni birlashtirgan elektr toki; tutun va tumanni birlashtirgan smog; taxmin va taxminni birlashtirgan taxminiy; telefon va marafonni birlashtirgan telemarafon; shokolad va alkogolni aralashtirgan shokokolik va boshqalar). Lyuis Kerroll 19-asrda o‘z she’riyatida slithy, frumious, galumph va boshqalar kabi yangi so‘zlarni kiritganida, bu uslubni adabiy effekt uchun ataylab ishlatgan birinchi shoir bo‘ldi.

Ba’zi so‘zlar o‘z ma’nolarini ko‘p marta o‘zgartirgan. Qanchadan-qancha so‘zi dastlab ahmoq degani edi; keyin, bir muddat shahvoniy yoki bema’ni ma’noga ega bo‘ldi; so‘ng o‘zining zamonaviy ma’nosiga o’tmasdan oldin bir qancha muqobil ma’nolarni (jumladan, g’ayrioddiy, nafis, g’alati, dangasa, erkaliksiz, hashamatli, kamtarin, engil, aniq, nozik, uyatchan, kamsituvchi va nazokatli) bosib o’tdi. 18-asr





oxirida. Aksincha, ahmoqlik dastlab muborak yoki baxtli degan ma'noni anglatardi, so'ngra taqvodor, begunoh, zararsiz, achinarli, zaif va zaif degan oraliq ma'nolardan o'tib, oxir-oqibat ahmoq bo'lib tugaydi.

Sozlar ular tasvirlagan tovushlarni ataylab taqlid qilish orqali tuzilishi mumkin (onomatopoeia). Ko'pincha bunday onomatopoeik shakllanish hayratlanarli darajada qadimiyyidir va qadimgi ingliz adabiyoti odatda yuqori onomatopoeik, alliterativ va zarbali deb ta'riflanadi. Ba'zan, taqlid dastlab manba tilda paydo bo'lgan bo'lishi mumkin va keyinchalik ingliz tiliga o'zlashtirilgan va o'z tabiatiga ko'ra tovushli taqlid bir necha tillarda o'xshash qarindoshlarga olib keladi. Ba'zi filologlarning ta'kidlashicha, birinchi inson tillari tabiiy tovushlarga taqlid sifatida rivojlangan ("kamon-voy nazariyalari" deb ataladi) va taqlid qilish qobiliyatları, albatta, til evolyutsiyasida qandaydir rol o'yagan.

Tasodifiy tanlangan tovushlar qatoridan juda oz sonli so'zlar ixtiro qilinadi. Ularning ko'pchiligi yangi ma'nolarga ega bo'lgan mavjud so'zlardan kelib chiqqan. Ayrim so'zlar nutqning ayrim qismlarini o'zgartirish orqali hosil bo'ladi. Yana boshqalar turli qismlarni birlashtirib, yangi so'zlarni yaratadilar. Ular neologizmlar deb ataladi, ular taxminan 1772 yilda namoyon bo'lgan. Neologizmlar bir nechta manbalardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan so'zlardir. Misol uchun, "kvark" so'zi Jeyms Joysning "Finneganning uyg'onishi" dan, "kiber fazo" esa Uilyam Gibsonning "Neomanser" dan olingan. Jozef Xellerning "Catch-22" romanining sarlavhasi o'ta og'ir vaziyatni tasvirlash uchun tez-tez ishlataladigan iboraga aylandi, shuning uchun hech qanday qochish mumkin emas, chunki shartlar o'zaro qarama-qarshidir. Mualliflarning ismlari, shuningdek, mos ravishda Frants Kafka va Jeyms Oruelldan "Kafkaesk" va "Oruellian" kabi tavsiflovchi so'zlarga aylanadi.

Mashhur kitoblarning qahramonlari, shuningdek, "pollyanna", (o'ta optimistik), "scrooge" (xudbin) va "quixotic" (idealistik, romantik, haqiqiy bo'limgan) kabi yangi so'zlarning manbalari hisoblanadi. Yangi so'zlar doimiy foydalanish bilan birlashtiriladi. Tanlangan mamlakatlarda so'zlar qabul qilinganda qaror qabul qiladigan tashkilotlar mavjud. Biroq, so'zlar qabul qilingan taqdirda ham, odamlarning qanday gapishlari bunga bevosita ta'sir qilmaydi. Frazing qaysi so'zlarning tilga kirishiga qarab belgilanadi. Odamlarning so'zlardan foydalanish usullari ularning madaniyati haqida ko'p narsalarni aytib beradi. Naturalizatsiya nashr etilgan tadqiqotlar va tadqiqotlar uchun ingliz tiliga o'xshash tarjimalarni bajarishda qo'llaniladi. Xuddi shunday, inglizcha so'z uning ma'nosini qisqacha tushuntirish bilan birga saqlanib qoladi. Neologizmlarni tarjima qilishda to'rtta tarjima usuliga e'tibor





beriladi: qarz tarjimasi, kalque, analoglardan foydalanish va transkripsiya va transliteratsiya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Durkin, P. 2009, The Oxford Guide to Etymology. Oxford, United Kingdom: Oxford University Press.
2. Zhou, L. N. 2016, Loan Words in Modern English and Their Features. Sino-US English Teaching. Vol. 13, No. 3, 209-212.
Ювилмаган жуннинг штапелларини ўртacha узунликларини аниқлашдан ташқари (60 та натижа бўйича) штапелларни узунликлари бўйича тақсимланиши диаграммаси ҳам қурилиши мумкин [5; 145–146 б.].

Кейинги босқичда эса штапелларни узиш зonasига узатилади узиш зonasи иккита қисқичлардан ташкил топади ҳаракатчан ва ҳаракатсиз. Ҳаракатчан қисқич ўз ҳаракатини штапелни қисиши узунлиги 55 mm да бошлайди ва узунлиги 400 m бўлган масофада илгариланма ҳаракат қиласи. Ҳаракатчан қисқичнинг ҳаракатланиш тезлиги 50 дан 300 mm/s гачани ташкил этади.

Ҳайвонларни озиқланишига қараб маҳаллий жунда сунъий ингичкалашишни пайдо бўлади ва 1-2 участкаларда “оч қалинлик” пайдо бўлиб, ўртacha ўлчами ингичка 21 mkm ва ундан кам бўлганлари учун жуда характерлидир[6]. Тадқиқ қилинган жун турлари учун алоқадорликларни аниқлаш чизиқли характерга эга. Барча тадқиқ қилинган маълумотларнинг қаторлари юқори даражадаги боғлиқликка эга бўлиб (деярли функционал) бу олинган корреляция коэффициентларининг қийматлари билан исботланади. Учта тадқиқ қилинган жамланмалар учун ювилмаган жун штапелининг ўртacha узунлиги оширишда жун штапелининг ўртасидаги узилишлар сонини ўсиши характерлидир.





Фойдаланган адабиётлар

1. Урозов М.К., Тошбеков О.А., Рахимова К. Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари. Eurasian Journal Of Academic Research. 2022. Vol 2, № 13. P. 784–788.
2. Toshbekov O.A., Urozov M.K., Juraqulov E.N., Raximqulova S.A. Mechanical and Chemical Processing Chemical Processing of Wool Fiber // Technology. International Journal on Integrated Education. 2021. Vol 4, № 9, C. 145-146.
3. Набиева И.А., Урозов М.К., Тошбеков О.А., Рахимова К., Бобомуродов Э. Жун толасини ювиш ва ёғ моддаларни ажратиш технологияси // Eurasian Journal Of Academic Research. 2022. Vol 2, № 13. P. 778–783.
4. Toshbekov O.A., Nabiyeva I.A., Urozov M.K., Alikulova D.A., Xolmurodova S.A. Technology Of Wool Fiber Washing and Oil Removal // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2021. T 2, C. 189-190.
5. Toshbekov O.A., Urozov M.K., Baymurova N.R., Hamrayeva M.F. Processes of bleaching and discolouring of wool fibers // International journal of social science & Interdisciplinary research issn. 2022. T 11, № 6. C. 231-235.
6. О.А. Тошбеков., М.К. Урозов. Маҳаллий дағал жун толасидан тўқимачилик саноатида фойдаланиш имкониятларини ўрганиш. ТерДУнашрматбаа маркази нашриёти, 2021-й.





O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI MAMLAKATLARI BILAN
IQTISODIY HAMKORLIKALARINI RIVOJLANISHIDA TRANSPORT
KOMMUNIKATSIYALARINING ROLI
Abdurahmonova Surayyo Eshqobilovna
QarMII "Ijtimoiy fanlar"

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorliklarini rivojlanishida transport kommunikatsiyalarining roli haqida so'z boradi. Muallif arxiv ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammoni tahlil qilgan va O'zbekistonning jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorliklarini rivojlanishida transport kommunikatsiyalarining roli bo'yicha mavjud o'ziga xos jihatlarini o'rgangan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, jahon hamjamiyati, mamlakatlar, iqtisodiy hamkorlik, transport kommunikatsiya.

Mamlakatimiz transport kommunikatsiyalari Markaziy Osiyo transporti yo'llarining, aholi va iqtisodiy resurslarining deyarli uchdan ikki qismini tashkil qiladi. U mintaqasi iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa respublikamizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishda, uning xalqaro obro'e'tiborini mustahkamlash uchun puxta moddiy negizning yaratilishida muhim rol o'ynaydi. Bizning mintaqamiz jahonda avtomobil, temir yo'l kommunikasiyalarini taraqqiyoti uchun eng katta qulayliklarga ega. Shuning uchun ham O'zbekistonda transport kommunikasiyalarining yangi sohalarini takomillashtirishga, ularning yuk tashish quvvatlarini oshirishga tranzit yuklarning mamlakatimiz hududi bo'ylab uzluksiz harakatlanishini ta'minlash, sohaga sarmoya jalb etishga qaratilgan ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston transport kommunikatsiyasi bo'yicha 30 dan ortiq xalqaro konvensiyalarga, bitim va shartnomalarga qo'shilgan, transport kommunikatsiyalarni integrallashtirish bo'yicha qator xalqaro dasturlarda ishtiroy etmoqda. "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyasi 1993 yildan temir yo'llar hamdo'stligi tashkilotining (OSJD) a'zosidir, Xalqaro temir yo'llar uyushmasi (MSJD), ESKATO-Osiyo-Tinch okeani mintaqasi uchun BMT, Yevropa uyushmasining TASIS dasturi TRASEKA (Evropa, Kavkaz, Osiyo transport yo'li) loyihasi bilan birgalikda ishlarni olib bormoqda. Yevropa qayta qurish va rivojlanish banki, Osiyo rivojlanish banki, Yaponiya Xalqaro hamkorlik banki va boshqa ko'plab mamlakatlar bank tuzilmalari bilan tenglik asosida istiqbolni ko'zlab bitimlar shartnomalar imzolangan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish xalq xo'jaligi taraqqiyotining asosiy hal qiluvchi qismlaridan biri hisoblanadi.





Transport kommunikatsiyasi sohalarini rivojlantirishda avtomobil va temir yo'llarni ta'mirlash, uni zamonaviylashtirish, yangilarini barpo etish uchun sarmoya jalb qilish, bojxona ishi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, transport va bojxona sohasida mintaqa mamlakatlarining milliy qonunchiligini o'zaro uyg'unlashtirish zarur. Ayni paytda xavfsizlik masalalariga e'tibor qaratish lozim. Bu yo'nalishdagi hamkorlik yuk tashish xavfsizligini ta'minlash barobarida narkotrafik kabi transmilliy illatlarga qarshi kurashishini ham taqozo etadi.

Markaziy Osiy mamlakatlari jahon iqtisodiyotiga izchil integratsiyalashib bormoqda. Boshqa mamalakatlardagi davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi muntazam oshmoqda.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyo yo'lsozlarining mashina mexanizmlari, loyihalash uskunalari tubdan yangilandi. Yaponiya, Germaniya, Finlandiya, Shvetsiya, Chexiya kabi bir qancha mamalakatlarda ishlab chiqarilgan texnikalar bilan ta'minlandi. Ayniqsa Germaniyaning mashhur kompaniya va firmalarining texnologiyalarini o'rganish, ulardan foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni alohida qayd etish joiz bo'ladi. Keyingi yillaring o'zida ularda "O'zavtoyo'l"ning yuzlab mutaxassislari malakalarini oshirganligi va tahsil olganligi ham bu boradagi ko'laming nechog'lik kattaligidan yana bir dalolatdir.

Jahon yo'lsozlariga "Virtgen" guruhlarini tanishtirishning hojati yo'q. U ishlab chiqarayotgan kichik hajmdagi kotoklardan tortib, asfalt va cement-beton yotqizuvchi mashina, zavodlarni besh qit'ada ham yaxshi bilishadi. O'zbekistonliklar ham mazkur kompaniya bilan qariyb o'n olti yillardiki hamkorlik qilib keladi. Poytaxtimiz shohko'chalari, mamlakatimiz magistral yo'llarining aksariyati nemis hamkorlarining mashina mexanizmlari yordamida barpo etildi va qurilayapti. Qamchiq dovoniga olib boruvchi avtotrassa ularning yangi texnologiyalar asosida cement-beton bilan qoplandi. Uning chidamlilik muddati asfalt yo'lga nisbatan uch marta ortiq bo'lib, qariyb chorak asrni tashkil qiladi.

Hozirgi kunda jahoning transport sohasi mutaxassislari yuk tashishda dengiz transportining o'rniga temir yo'l transportidan foydalanishning katta samaradaorligi haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Yuk tashishda temir yo'l transporti har tomonlama qulay va foydali ekanligi haqida tavsiyalar berishmoqdalar.

Transport kommunikatsiyalari rivojlanishida uzoq kelajakka mo'ljallangan istiqbolli rejalar amalga oshirilmoqda. Masalan: yangi qurilgan Andijon-O'sh-Qashqar avtomobil yo'li Markaziy Osiyodan Xitoyga chiqish imkonini berdi. Saraks-Tejan-Mashhad temir yo'li Eronning fors ko'rfaqidagi bandargohlarga yo'l ochdi. 2003 yilning 17-18 iyun kunlari Texronda O'zbekiston, Eron va Afg'oniston prezidentlari





Xalqaro Transafg'on yo'lagini barpo etishga qaratilgan "Xalqaro transport yo'naliishlari to'g'risida" gi bitimga imzo chekdilar. Ommon ko'rfaziga chiquvchi bu yo'l bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu yo'l orqali kelajakda Hind okeaniga ham yuklarimizni bemalol olib bora olamiz.

Qisqa muddatlarda Toshguzar-Dehqonobod-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilganligi Termiz-Hayraton ko'prigi orqali Hind okeaniga chiqishimiz imkonini yaratdi. Yo'l qurilishida Yapon mutaxassislari ham faol qatnashib, umumiyligi 1200 metr bo'lgan beshta metal ko'priksi qurishga 4584000000 ien pul sarfladilar. Ushbu ob'ektlar 2009 yilda qurib tugallandi va foydalanishga topshirildi. 633 kilometrlik Nukus-Sulton Uvaystog'-Miskin-Uchquduq temir yo'lining ishga tushirilishi natijasida Turkmaniston hududiga kirmasdan Navoiy, Xorazm, Qoraqalpog'iston Respublikasi orqali Rossiya, Boltiqbo'y, Kavkaz, Belorussiya va Evropa mamlakatlariga tranzit yuklarni tashish imkoniyatlari yaratildi. Bu mamlakatimizning Turkmanistonga to'lanadigan katta miqdordagi valyuta mablag'larini tejash imkonini berdi.

Xorij mezonlari talablari asosida qurib bitkazilgan Qamchiq avtomagistrali hozirgi kunda muhim strategik transport kommunikatsiyasi hisoblanadi. U Andijon-O'sh orqali Xitoyning Shinjon viloyatiga, undan Qashqar orqali Tinch okeaniga, Yaqin Sharq va Janubiy Evropa, arab mamlakatlariga, g'arbdan esa Turkmaniston orqali Kavkaz, Eron, Turkiya orqali O'rta yer dengiziga chiqish imkonini beradi. Markaziy Osiyo davlatlari hukumat rahbarlari transport kommunikatsiyalarini haqida keyingi yillarda 200 dan ortiq shartnomalar imzoladilar. Bu hujjatlar transport kommunikatsiyalarini xo'jaligini integratsiyalashga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy hayotni yagona siyosat va o'zaro hamkorlik asosida taraqqiy qildirishga qaratilgan. Shuningdek, mamlakatimizning 30 dan ortiq xalqaro transport kommunikatsiyalarini konvensiyalariga, bitim va shartnomalarga qo'shilganligi ham sohaning kelajagi buyukligini, strategik istiqbollari nihoyatda yuksakligini bildiradi. Keyingi yillarda Markaziy Osiyo yo'lsozlarining mashina mexanizmlari, loyihalash uskunalarini tubdan yangilandi. Yaponiya, Germaniya, Finlandiya, Shvetsiya, Chexiya kabi bir qancha mamalakatlarda ishlab chiqarilgan texnikalar bilan ta'minlandi. Ayniqsa Germaniyaning mashhur kompaniya va firmalarining texnologiyalarini o'rganish, ulardan foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni alohida qayd etish joiz bo'ladi. Keyingi yillaring o'zida ularda "O'zavtoyo'l"ning yuzlab mutaxassislari malakalarini oshirganligi va tahsil olganligi ham bu boradagi ko'lamning nechog'lik kattaligidan yana bir dalolatdir.



Markaziy Osiyo mamlakatlari Boku-Tbilisi-Kars transport koridori doirasida ham faol ishtirok etmoqdalar. 2020 yil Gruziyaga O'zbekiston orqali yuk tashish yo'lga qo'yildi. Ushbu yo'naliш Turkiya va Yevropadan Markaziy Osiyonni Kaspiy orqali Yevropa bilan bog'lash yuk tashish uchun qisqa yo'lni ta'minlaydi.

Shu bilan birgalikda, mintaqada transport-logistika sohasida bir qator muammolar mavjud. Bugungi kunda dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniga ega bo'lмагan mintaqada davlatlarining transport-tranzit harajatlari sezilarli darajada katta bo'lib, ular eksport qilinayotgan mahsulot qiymatining 70-80 foizigacha yetmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT shafeligida transport-kommunikasiya aloqalarini rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy markazni tashkil etish tashabbusi mintaqada transport-kommunikasiyalar sohasini rivojlantirishga va bir qator ustuvor rejalmi ro'yobga chiqarishda, jumladan mintaqada transport-logistika sohasini umumiyl rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dasturlar va strategik ahamiyatga ega hujjatlarni qabul qilishga, to'siqlarni bartaraф etish va istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish bo'yicha yondashuvlarni aniq chora-tadbirlar asosida amalga oshirishga yo'naltirilgan. Prezidentimizning Markaziy Osiyoda transport-kommunikasiyalarni rivojlantirish bo'yicha ilgari surgan bir qator tashabbuslarini amalga oshirishga jumladan, Markaziy Osiyoning mintaqaviy transport yo'laklarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va shu asosda Markaziy Osiyo mamlakatlari transport kommunikasiyalari bo'yicha mintaqaviy kengashni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston g'arbiy hududlarini Rossiya o'lkalari bilan iqtisodiy hamda madaniy aloqalarini yanada rivojlantirishni ko'zlab, Qo'ng'irot-Beynov 410 kmlik temir yo'l qurildi. O'zbekistonda temir yo'l transporti sohasida muhim koridorlarga ega bo'lib hozirgi kunda O'zbekistonning eksport yuklarini jahon bozorlariga etkazib berish u orqali amalga oshiriladi.

Afg'oniston Mozori Sharif, G'alaba Surxondaryo viloyati hukumatlararo ulash nuqtasi orqali, umumiyl masofasi 933 km tashkil etadi. Bandar Abbos Eron tranziti Turkmaniston orqali va Fors ko'rfazi orqali, Sohar Ummon, janub Karachi, Pokiston, Mumbay, Chittagong Bangladesh va Sharqiy Osiyo yo'naliши bo'lib, bu yo'l Turkmaniston va Eron Islom Respublikasida joylashgan. Uzunligi 2827 km. Bu port orqali transport yo'lagi iqtisodiy jihatdan eng samarali va arzondir.

. Hozirgi kunda dunyoda, ayniqla mintaqamizda ro'y berayotgan chuqur va izchil siyosiy-iqtisodiy jarayonlar amaldagi transport yo'laklaridan oqilona foydalanish bilan birga, mavjud yirik xalqaro bozorlar va faoi shakllanib borayotgan istiqbolli bozorlarni bog'laydigan yangi, samarali yo'nalishlarni ochish va o'zlashtirishni taqozo





etmoqda edi. Bu uzoq muddatli umumiy manfaatlarga mos kelardi, boy tabiiy zaxiralar va mineral xomashyo resurslaridan keng foydalanishni ta'minlashga ko'maklashardi, shuningdek davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishning kafolati bo'lib xizmat qiladi va gumanitar hamkorlikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochilardi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati jamoasiga tabrige//Xalq so'zi, 2018 yil.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliши bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 noyabrdagi Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on yangi temir yo'l liniyasi qurilishi loyihasini amalga oshirishni jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 559-son qarori. Lex.uz
- 6 Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
7. O'zbekiston hududlari mustaqillik yillarida.-Toshkent: Sharq, 1996.





ENERGIYA SAMARADORLIGI O`SISHIDA

«YASHIL IQTISODIYOT» TIZIMI

Ergasheva Umida Asad qizi

Student of the Termez Institute of agrotechnologies

and innovative development

Annotations. Maqola energiya samaradorligi o'sishida «yashil iqtisodiyot» tizimi masalalari tugrisida ma'lumotlar keltirilgan.

Annotation. В статье представлена информация по вопросам системы «зеленая экономика» в повышении энергоэффективности.

Annotation. The article provides information on the issues of the "green economy" system in increasing energy efficiency.

Kalit so`zlar. Yashil iqtisodiyot, zahira, energiya tejamkorligi.

Ключевые слова. Зеленая экономика, резерв, энергосбережение.

Key words. Green economy, reserve, energy saving.

Bugungi kunda energiya tejamkorligini oshirish, ekologik toza, noan'anaviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli foydalanish er osti boyliklari zahiralarini tejash barobarida ekologiyaga chiqarilayotgan zararli gazlarning miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Shu bois butun dunyoda iqtisodiyotning turli sohalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilyapti.

Mutaxassislarning fikricha, yaqin kelajakda u yoki bu davlatning barqaror rivojlanishi uchun energetika tarmog'ida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish salmog'iga uzviy bog'liq bo'lib qolishi ehtimoldan xoli emas.

Shularni inobatga olgan holda so'nggi yillarda respublikamizning sanoat tarmoqlariga «Yashil iqtisodiyot» tizimini joriy qilish, ijtimoiy sohasida energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, innovatsion taraqqiyotni jadallashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 1-martdagi Farmoni va "2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi 2015-yil 5-maydagi qarori bu yo'nalishdagi ishlarni yanada jonlantirishga turtki bo'ldi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar energiyani iste'mol qilish sohasidagi qator muammolarni hal qilish, shuningdek,





noan'anaviy energetika resurslaridan, jumladan, quyosh energiyasidan foydalanish borasida yangi imkoniyatlarni ochdi. Toshkent shahrida Quyosh energiyasi xalqaro instituti faoliyat ko'rsata boshladi hamda Osiyo taraqqiyot banki ko'magida O'zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirishning "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori bu boradagi sa'y-harakatlarni yangi bosqichga ko'tardi.

Ushbu hujjat 2017-2021 yillarda yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va qayta tiklanuvchi manbalar energiyasidan foydalanishni kengaytirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatga ega. Unga ko'ra yaqin istiqbolda ustuvor vazifa sifatida iqtisodiyotning energiya va resurs sig'imini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiyani tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, mehnat samaradorligini oshirish ko'zda tutilmoqda.

Aholi uchun kafolatlangan energiya resurslarining ochiqligini ta'minlashga qaratiladigan chora-tadbirlar esa uzoq qishloq hududlarida aholining hayot sifatini yaxshilash va ularning farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Insoniyat hamisha energiyaning eng samarali manbalarini izlab topishga harakat qiladi. Ayniqsa, bugungi davrda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etib, energetika xavfsizligini ta'minlash har bir davlat uchun eng ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda.

Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda elektr energiyasi ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari o'rtacha 3,4 foizni tashkil etayotgan bir paytda, qayta tiklanadigan energiya manbalarining eng istiqbollik tarkibiy qismi bo'lgan quyosh energiyasi keyingi besh yil davomida har yili misli ko'rilmagan sur'atlarda oshmoqda. Binobarin, hozirgi davrda bir qator davlatlar soha rivojiga qaratilgan loyihalarni amaliyotga tobora keng joriy etayapti, buning uchun investitsiya yo'naltirmoqda, istiqbolli ishlanmalar hamda tadqiqotlarni qo'llab quvvatlamoqda. Shu usulda elektr quvvati va issiqlik ishlab chiqarish bazalari, infratuzilmalari barpo etayapti. Garchi rivojlanishning mazkur yo'lidan borish katta sa'y-harakatlar, kuchg'ayrat, muayyan sarf-xarajatlarni talab etsa-da, ular zoe ketmasligi, o'zini to'liq oqlashi amaliyotda isbotini topayotir. Bugungi kunda bir kilovatt-soat quyosh elektr energiyasini ishlab chiqarish tannarxi 11-12 sent yoki undan ham arzon narxlarga tushishi hisoblab chiqilgan. Bu esa fotoelektrik qurilmalar yetkazib berayotgan quvvat jihatidan yaqin kelajakda an'anaviysi bilan raqobatlasha oladi, degan xulosani beradi.





Yurtimizda muqobil energiya manbalari, eng avvalo, quyosh energiyasidan foydalanish sohasida ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish borasida katta tajriba to‘plandi. Markaziy Osiyoda o‘xhashi yo‘q ilmiyekperimental markaz– Fanlar akademiyasining «Fizika-Quyosh» ilmiy ishlabchiqarish birlashmasi faoliyat yuritayapti. Issiq suv va issiqlik ta’minoti uchun past potensialli qurilmalar, elektr quvvati olish uchun fotoelektrik va termodinamik o‘zgartkichlar, maxsus materiallar sintezi texnologiyalarini yaratish, materiallar va konstruksiyalarga termik ishlov berishda Quyosh energiyasidan foydalanish singari bir qator yo‘nalishlarda qo‘lga kiritilgan natijalar alohida e’tirof etilmoqda. Shular barobarida gelioenergiya bilan suv isitadigan qurilmalar asosida uy-joylar va ijtimoiy ob’yeektlarni issiq suv bilan ta’minlash tizimlari ishlab chiqilib, ulardan tajriba tariqasida foydalanilmoqda.

Mamlakatimiz hali yetarlicha o‘rganilmagan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ega, ular asosan quyosh va shamol resurslari bo‘lib, toza va barqaror energiyani ta’minlay olish imkoniyati mavjud. O‘zbekiston Markaziy Osiyo va Sharqi Yevropadagi eng energik-intensiv mamlakatlar qatoriga kirishi kutilmoqda. Ayni paytda, O‘zbekistondagi qayta tiklanuvchi energiya resurslarini ko‘rib chiqsak:

- Quyosh energiyasi: 525 dan 760 mlrd. kVt.s gacha;
- Shamol energiyasi: 1 trln kVt.s gacha;
- Gidroenergetika: 21 mlrd. kVt.s dan oshiq;
- Biomassa: 6 mlrd. kub.m.

Qayta tiklanuvchi energetika baribir hali beri o‘z samaradorligini ko‘rsatishi uchun ancha vaqt va mablag‘ni talab etadi. Hozirda mavjud asosiy muammolarimizni statistik kuzatishlarda ko‘rib chiqsak. Albatta, o‘z-o‘zidan nega bu ko‘rsatkich yuqori degan savol tug‘iladi. Respublikamizda energiya YAIM iste’moli yuqoriligining turli sabablari mavjud bo‘lib, asosiy sabablaridan biri, sanoat tarmoqlari korxonalarida jismoniy eskirgan texnologiyalarning haligacha ishlatib kelinishi deyish mumkin. Bu esa boshlang‘ich manbadan kelayotgan 60 foiz energiyaning yetkazuvchi va tarqatish tizimlarida yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, fakel (mash’al) qurilmalaridagi gazni yoqish ham katta miqdorda pulni osmonga sovurish degani.

Adabiyotlar:

1. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari, “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №2, 2017 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga Sharh
3. UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, <http://www.unep.org/greenconomy>





**CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YIN
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.**

O'rinoval Shoxista Baxtiyor qizi

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi

**metodikalarga o'rgatish milliy markazi Amaliy fanlar va
maktabdan tashqari ta'lif metodikasi kafedrasi o'qituvchisi**

E-mail: orinovas984@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada didaktik o'yinlarni o'tkazish texnologiyasi. O'qituvchi avvaldan har bir darsni ma'lum bo'laklarga bo'lib chiqishi va qaysi bo'lakda nima o'tish (o'qitish) hamda u nimadan ibotar ekanligini belgilab chiqishi lozim. Bu esa o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyatga tatbiq etish va ularni hayotiy muammolarga tatbiq qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, chizma, pedagogika, kreativ, interaktiv, kontent, mustaqil ta'lif, elektron resurs va elektron test.

Ma'lumki, bolalar jim o'tirolmaydilar, ular doimo harakatda bo'ladilar, ya'ni o'ynaydilar. O'yin bolalarning tabiiy hamrohi bo'lib, ularga olam-olam hayojonli quvonch keltiradi. Bolalar o'yinlar orqali dunyoni, ya'ni tevarak – atrofni o'rganadi, shu bilan bir qatorda ma'lum darajadagi tarbiyani ham oladi. O'yin orqali mehnat qilishga o'rganadi. O'yin davomida o'zining sevgan qahramoni obraziga kirib, o'zida haqqoniylig, yolg'on gapirmaslik, zehn o'tkirlilik, chaqqonlik, kuchli bo'lishlik, bardosh berishlik, tez topqirlik, g'alaba qilishga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

O'yin qoidalari asrlar davomida xalq tomonidan qonunlashtirilib ularning tarbiyaviy ahamiyatiga ko'p e'tibor berilgan. Shuning uchun maroq bilan ko'p o'ynaydigan bolalar zehni o'tkirligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Umuman olganda, o'yinni go'dak boladan tortib mo'ysafitgacha o'ynashi mumkin. O'yinlarni odamlar o'z yoshiga qarab tanlashadi. Yosh bolalar ko'proq harakat bilan bog'liq o'yinlarni tanlashadi. Chunki, ularning o'sishi, ulg'ayishi buni talab qiladi. Yoshi ulg'aygan sari odamlar asta-sekin ko'proq fikr yuritadigan o'yinlarni tanlashadi.

Talabalarning yuqoridaq fazilatlarini o'rganib, chizmachilik darslariga o'yin elementlarini kiritish lozim. An'anaviy dars jarayonida talabalarning zerikishlarini, charchashini sezish bilan o'qituvchi 5-6 minutlik mavzuga bag'ishlangan o'yin





o'tkazishi lozim. Chizmachilikdan o'tkaziladigan har bir o'yin o'ziga hos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Bu yerda o'qituvchi sinfdagi barcha talabalarning diqqatini o'tkaziladigan qisqa muddatli o'yinga jalg qila bilishi katta ahamiyatga ega. O'yinda talaba faol ishtirok etishga, fikr yuritishga, mulohaza qilishga qilgan harakatlari ularning butun his tuyg'ularini ishga soladi. O'yinli qiziqarli va jonli o'tishga ko'p jihatdan o'qituvchining mahoratiga bog'liq hisoblanadi.

Agar o'qituvchi bolalar psixologiyasiga monand yo'l tutib, ular bilan o'ynasa, ya'ni ularning yoshiga hos bo'lgan o'yin elementlardan foydalansa, oliy toifali chizmachilik o'qituvchilarning aytishicha, har bir dars kichik – kichik o'ylardan tashkil topgan bo'lsa, albatta dars jonli, qiziqarli, mahsulli o'tadi.

Didaktik o'yinlar oddiydan asta – sekin murakkablashtirib tuzilgan bo'lishi, talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirishga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Didaktik o'yinlar orqali talabalarda quyidagi faoliyatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi:

- sekin-asta turli didaktik masalalarni kiritish yo'li bilan aqliy faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlarni shakllantiradi;

- aqliy faoliyatida o'yinga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi;

- bitta o'yin chegarasida qator aqliy masalalar majmuasini o'stiradi;

- barcha o'ynayotganlarning hissiy va intelektual tuyg'ularini bitta maqsadga yo'naltiradi;

- talabalarda tartiblilik, tashkilotchilik, maqsad sari intiluvchanlik hislarini tarbiyalaydi. Bunday muammolarni yangi darajada qabul qilish talabalar ongida ko'plab kelayotgan turli axborotlarni singdira olishga olib keladi.

Didaktik o'yinlarni o'tkazish texnologiyasi. O'qituvchi avvaldan har bir darsni ma'lum bo'laklarga bo'lib chiqishi va qaysi bo'lakda nima o'tish (o'qitish) hamda u nimadan ibotar ekanligini belgilab chiqishi lozim. Shunda dars jarayonida o'quvchilarning zerikayotgani, charchayotganligini yoki psixologik o'zgarishlarini sezishi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatiga yangi mazmun kiritish maqsadida mavzuga moslashtirilgan qisqa muddatli didaktik o'yin kiritish zarur bo'ladi. Shunda, o'quvchilarning diqqati yangiliklarga qaratilgan bo'lib, ularning faolligi oshadi. Shunday vaziyatda taklif etilgan o'yin yordamida o'tilayotgan mavzuni o'z vaqtida to'la o'zlashtirilishiga imkon yaratiladi¹.

Masalan, chizmalarni o'qishga bag'ishlangan darsda model va boshqa ko'rsatmali qurollar yordamida modelning berilgan ikkita ko'rinishi bo'yicha uchunchi

¹ Toshpulatov Faxriddin Urolovich CHIZMACHILIK (Geometrik chizmachilik) "KAMOLOT" nashriyoti Buxoro 2023





ko‘rinishini aniqlash bosqichlarda tushuntirilgandan keyin o‘quvchilarning olgan bilimlarini tekshirish maqsadida qisqa muddatli didaktik o‘yin “Kim tez tuzadi” taklif qilinsa, o‘quvchilar tomonidan mavzuni qanday o‘zlashtirganliklarini amaliy sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1 – o‘yin. “Solishtirib aniqlash” didaktik o‘yini.

O‘yining sharti. Detallarning ko‘rinishlari va yaqqol tasvirlarini o‘zaro solishtirish yo‘li bilan chizmalarini o‘qishga o‘rgatish.

Maqsad. O‘quvchilarga detallarning ko‘rinishlari va yaqqol tasvirlarini o‘zaro solishtirish yo‘li bilan chizmalarini o‘qishni o‘rgatish. Ularda tahlil, sintez, taqqoslash va fikrlash qobiliyatlarini, chizmalarini o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Jihozlar. Bitta A1 formatda 4 ta detalning ko‘rinishlari, xuddi shunday formatda esa o‘sha detallarning yaqqol tasvirlari chizilgan ikkita plakat. plakatdagi har bir detalning ko‘rinishlari burchagiga 1, 2, 3, 4 raqamlari yozib qo‘yiladi, yaqqol tasvirlariga A, B, C, D harflari bitiladi. Chizmalardagi 1 raqamiga A harfi to‘g‘ri kelmaydigan, ya’ni chalkashtirilgan holda yoziladi. Bunday plakatlar turi bir nechtadan bo‘lsa, sinfdagi barcha o‘quvchilarning o‘yinda ishtiroy etish imkoniyati yaratiladi.

O‘yining tafsiloti. O‘qituvchi doskaga ikkita o‘quvchini chaqirib, ulardan bittasiga yaqqol tasvir chizilgan A detalning ko‘rinishlarini topish va doskaga yozib qo‘yishni buyuradi. Ikkinci o‘quvchiga esa ko‘rinishlari tasvirlangan detalning yaqqol tasvirini topib sindf doskasiga yozib qo‘yishni buyuradi. Har qaysi o‘quvchi o‘zicha mulohaza yuritadi va masalan, birinchi A va 4 ni bir-biriga mos, ular bitta detalning yaqqol tasviri va ko‘rinishlari deb, A4 ni yozib qo‘yadi. Ikkinci o‘quvchi ham shunday fikrlab, aytaylik 1B ni yozib qo‘yadi. Boshqa o‘quvchilar ham o‘yin shartiga javobni ana shu yo‘sinda bajaradilar.

O‘qituvchi o‘yinni yakunlab, to‘g‘ri topgan o‘quvchilarni g‘olib deb e’lon qiladi.

Eslatma. O‘yindan oldin bitta va ikkita ko‘rinishlar orqali tasvirlanadigan detallar bilan mashqlar o‘tkazib, o‘quvchilarda bir oz ko‘nikma hosil qilish, shundan keyin ikkita va uchta ko‘rinishli detallarni qo‘llash yaxshi natija beradi. O‘quvchilarning hamma yozuvlaridagi xatolari tushuntirilishi kerak. Vaqtini tejash uchun o‘quvchilarga javob topishga ozgina fursat berish paytida “birdan beshgacha sanayman” deb ogohlantirish lozim.

2- o‘yin. “O‘ylab top” didaktik o‘yini.

O‘yining sharti. Detalning berilgan ikkita ko‘rinishiga qarab uchunchi ko‘rinishini topish.





Maqsad. O'quvchilarga chizmalarni o'qish va uning ko'rinishlarini tahlil qilishni, ziyraklik va topqirlikni o'rganish. Ularda chizmalarni o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

Jihozlar. Detallarning ikkitadan ko'rinishlari sinfdagi hamma o'quvchilarga yaqqol ko'rinaligan kattalikda tasvirlangan plakat – chizmalar. Har bir bosh ko'rinishlar yoniga uchunchi ko'rinishni joylashtirish uchun moslamalar (karmonchalar). Maskur detallarning uchunchi ko'rinishlari chizilib aralashtirib qo'yiladi. O'quvchilar detallarning uchunchi ko'rinishlarini aniqlash paytida ularga ko'maklashish maqsadida, shu detallarning yaqqol tasvirlari yoki modellari tayyor qilinib, yashirib qo'yiladi.

O'yining tafsiloti. Detallarning ikkita ko'rinishlari tasvirlangan chizma doskaga ilib qo'yiladi. O'qituvchi birini chaqirib, chizmalar ichidan bitta detalning uchunchi ko'rinishini tez topib berishni so'raydi. O'quvchi esa chizmalar orasidan detalning ikkita ko'rinishini o'qib, unga mos uchunchi ko'rinishni topadi va chizmadagi moslamaga joylashtiradi. O'yin shu tatibda davom ettiriladi. O'yin paytida o'quvchilar detallarning uchunchi ko'rinishini topishda qiyntasalar, ularga oldin yashirib qo'yilgan yaqqol tasvirlari yoki modellari ko'rsatiladi va bular ichidan shu ikkita ko'rinishga mos keladigan detalni ko'rsatish so'raladi. Agar o'quvchi to'g'ri topa olsa, detalning uchunchi ko'rinishini aniqlash osonlashadi. O'qituvchi vazifani tez va to'g'ri bajargan o'quvchilarni g'oliblar deb e'lon qiladi.

Eslatma. O'yinni baholashdan oldin bir-biridan katta farq qiladigan detallar tanlanib, ularning ikkitadan ko'rinishlari orqali uchunchi ko'rinishlarini aniqlash mashq qilinsa, keyinchalik detallarning farqi kamaytirilib boriladi va detalning uchunchi ko'rinishini topish osonlashadi. Mashq uchun tanlangan detallarni asta – sekin murakkablashtirib borishga e'tibor berish tavsiya etiladi.

3-o'yin. "Eng to'g'risini topish" didaktik o'yin.

O'yining sharti. Detalning yaqqol tasviriga mos bir nechta ko'rinishlari orasidan eng to'g'risini topish (2.1-chizma).(9-ilova)

Maqsad. O'quvchilarda chizmalarni o'qish va tahlil qilish masalalarini takomillashtirish, standart talabiga doir bilimlarni tarkib toptirish.


Jihozlar. Diametri 250 mm li beshta doira yasaladi va bittasining diametri to'rtga, qolganlari uchga bo'linadi va markazi bilan tutashtirilib sektorlari hosil qilinadi. To'rt sektorli doiraga to'rtta turli detallarning chizilgan yaqqol tasvirlari qo'yiladi. Uchta sektorli doiralarga har bir detalning uch xil variantdagi ko'rinishlari chizib chiqiladi (1-chizma). To'rt sektorli doiraga qo'zg'almas, qolganlari unga urinadigan hamda





aylanadigan qilib joylashtiriladi. Uch sektorli doiralardagi ko‘rinishlar markazdagi detallarga mos keladigan vaziyatda joylashtirilishi lozim.

O‘yinning tafsiloti. O‘qituvchi o‘rtadagi qo‘zg‘almas doiraga chizilgan to‘rt xil detalning yaqqol tasvirlarini ko‘rsatib, atrofidagi aylanadigan doiralarda tasvirlangan uch xil variantdagi ko‘rinishlar ichidan eng to‘g‘ri, standart talabidagi ko‘rinish (lar)ni topib, o‘rtadagi detalning yaqqol tasviriga moslab aylantirib qo‘yish lozimligi tushuntiriladi. Bu vazifani bajarishda chizmachilikdagi ko‘rinishlarga oid barcha standart talablarni qondiradigan variant tanlanishi zarurligi ta’kidlanadi. O‘quvchilar uch xil ko‘rinishda tasvirlanganlar ichidan eng to‘g‘ri variantni topishga qiyalsalar, ularga standart talabini, ya’ni detalni eng kam ko‘rinish orqali tasvirlashga ahamiyat berish kerakligi eslatib o‘tiladi. Detallarning yaqqol tasvirlariga mos eng to‘g‘ri ko‘rinishlarni birinchi bo‘lib aniqlagan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.²



I-chizma

Umumiyl xulosa chizmachilik darslarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish haqida umumiyl ma’lumotlar berildi.

Chizmachilik fanini o‘qitishda didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish usullari ko‘rsatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Sh.K.Murodov va boshqalar. Chizma geometriya. Toshkent, “Moliya-iqtisod”, 2006.
2. Toshpulatov Faxriddin Urolovich, Naqqoshlik [Matn] : o‘quv qo‘llanma. - Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022.-144 b.

² Xalimov M.K. “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi”. –T.: “Voris”. 2013-y.





3. O. Meyliev, & K. Gofurova (2023). PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF A "GREEN ECONOMY" IN UZBEKISTAN. *Science and innovation*, 2 (A8), 117-122. doi: 10.5281/zenodo.8298676
4. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov,A.Pardaev. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar.T.,2010
5. Xalimov M.K. "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi". –T.: "Voris". 2013-y.



«XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIES, SCIENCE AND EDUCATION
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR» NOMLI
KONFERENSIYANING 1-TOM, 9-SON (30-SENTABR)
MUNDARIJA

1	O'RTA OSIYODA HOZIRGI KUNDA SUV TANQISLIGI MUAMMOSI VA UNING YECHIMI. Abdujalilova Moxinur Valijon qizi, Ahmatjanov Ravshanjon	5-11
2	ЭЛЕКТР ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ЭЛЕМЕНТЛАРИНИНГ ПАРАМЕТРЛАРИ ВА СХЕМАЛАРИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ ҲОЛАТИ ВА ТАҲЛИЛИ А.Д.Таслимов, А. Юлдашев	12-14
3	ХОРИЖ ТАРИХШУНОСЛИГИДА ШАРИАТ СУДИ ТАРИХИНИНГ ӮРГАНИЛИШИ МАСАЛАЛАРИ. Opaev Baymurat Abdreshitovich	15-18
4	AN INTRODUCTION TO ANATOMICAL HISTOLOGICAL TERMINOLOGY: NOUNS AND THEIR GRAMMAR CATEGORIES Yorova Sayora Karimovna, Tariq Munir	19-22
5	SKARLATINA: UNING ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI, DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH VA OQIBATLARI Abdullo Akramov Ahmad o'g'li, Murtozoyeva Ug'iloy Saydulla qizi, Isaqulov Ulug'bek Alisher o'g'li, Guliyev Oybek Olti o'g'li, Orifov Jonibek Erkinjon o'g'li	23-25
6	Курсантларнинг умумий жисмоний тайёргарликларининг илмий асослари Матчанов Русланбек Азатович	26-30
7	МИЛЛИЙ ТУРИЗМ ТАРМОФИНИНГ РАҶОБАТ УСТУНЛИГИ: НАЗАРИЙ АСОСЛАР ВА УСЛУБИЙ ЁНДАШУВЛАР Халилов Сирожиддин Шерали ўғли	31-36
8	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YOSH O'QITUVCHILARINING QADRIYATLAR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH Gadayeva Shamsiya Botirovna	37-40
9	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINING ELEKTR TOKI HAQIDA TUSHUNCHА MAVZUSIGA DOIR BILIMLARINI OILAVIY SHAROITDA RIVOJLANTIRISH Choriyeva Mahfuzা Sadreddin qizi	41-44
10	INGLIZ TILIGA XORIJUY TILLARDAN KIRIB KELGAN SO'ZLARNING YASALISHI Xushvaqtova Gulnoza Tulqinovna	45-48
11	Jismoniy shaxslarning huquq va muomala layoqati. Jo'raqulova Hilola O'ktam qizi	49-51
12	FILTRATSIYA TENGLAMASI UCHUN BITTA CHEGARAVIY MASALA Diyorova Gulnoza Baxtiyor qizi	52-61
13	MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH Ilkhamov Bohodir Bakhtiyorovich	62-65
14	НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ ОРГАНИЗОВАТЬ УРОКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ЭФФЕКТЫ ЗРЕЛЕНИЯ Ильхамов Боходир Бахтиёрович	66-71
15	INNOVATION IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF MUSIC EDUCATION THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INFORMATION TECHNOLOGIES Yoldoshev Valisher	72-75



16	ПОНЯТИЕ ПЕСНИ И ЕЕ МЕСТО В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА ТАКЖЕ ИСТОРИЯ ПЕВЧЕСКОГО ВЫСТУПЛЕНИЯ Юлдошев Валишер	76-80
17	GELMGOLTS TENGLAMASI UCHUN BIR MASALANING YAGONALIGI Oltiboyeva Dilnora Orifjonovna, Madaminova Gulruh Qadamboy qizi	81-82
18	BUXORO VILOYATIDA O'STIRILGAN ARTISHOK "VIOLETTA" NAVINING ONTOGENEZI G.R. Djumayeva, E.E. Isomov	83-87
19	SUG'ORILADIGAN YERLARDA NO'XAT NAVLARINING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGI Valijonova Lobar Soxobjon qizi	88-91
20	ARTISHOK "IMPERIAL" NAVINING O'SISH VA RIVOJLANISH FAZALARI. Qobilova Mohigul Ruslan qizi	92-95
21	SUG'ORISH SONINING NO'XAT NAVLARINING O'SISH, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI Mustanova Zarnigor Sobirovna	96-99
22	O'TXO'R BALIQLAR UCHUN RYASKA (LIMNA) O'SIMLIGIDAN EKOLOGIK TOZA, ARZON VA TO'YIMLI OZUQA TAYYORLASH Xamroyev Azimjon Mansurovich	100-103
23	THE USE OF ENGLISH WORDS IN THE FRUIT AND VINE FIELD Qurbonova Dildor Babanazarovna, Allaberdiyeva Lola Anvar qizi	104-106
24	MAISHIY OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASHDA YUKSAK SUV O'SIMLIGI PISTIYADAN FOYDALANISH Botirova Mohinur Qodir qizi	107-110
25	LINGVOKULTUROLOGIYA FANINING YUZAGA KELISHI Esonov Rustam Raxmonali o'g'li	111-113
26	PROBLEMS IN WORD LEARNING FOR ENGLISH LANGUAGE STUDENTS AND THEIR SOLUTIONS Nilufar Sabirova Kudratovna	114-117
27	THE IMPORTANCE OF ENGLISH IN EDUCATION TODAY, PROBLEMS AND SOLUTIONS. Nilufar Sabirova Kudratovna	118-120
28	ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ КУЛЬТУР КЛЕТОК РАСТЕНИЙ АСТРАГАЛА Салимова Сарвиноз Бахтеровна	121-125
29	BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJODKORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI Saitova Muattar Ulug'bek qizi	126-128
30	ЖУН ТАРКИБИДАГИ ИФЛОСЛИКЛАРИНИ ТОЗАЛАШ ВА ЁФ МОДДАЛАРНИ АЖРАТИШ Тошбеков Одил Абдуллаевич, Худойназаров Отабек Равшанович, Абдухоликов Миркомил Юсуфович	129-133
31	O'ZBEKİSTONNING JAHON HAMJAMIYATI MAMLAKATLARI BILAN IQTISODIY HAMKORLIKALARINI RIVOJLANISHIDA TRANSPORT KOMMUNIKATSIYALARINING ROLI Abdurahmonova Surayyo Eshqobilovna	134-138
32	ENERGIYA SAMARADORLIGI O'SISHIDA «YASHIL IQTISODIYOT» TIZIMI Ergasheva Umida Asad qizi	139-141
33	CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. O'rınova Shoxista Baxtiyor qizi	142-147
	MUNDARIJA	148-149

